

KIBER MAKON KEBIR TERRORIZM KIBER ZO`RAVONLIK (CYBERBULLYING) TUSHUNCHLARI MOHIYATI

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi

*SHDPI 2-kurs talabasi **Omonova Sevinch***

***Annotatsiya:** Ushbu maqola Bugungi kunda terrorizmga berilgan ko`plab ta`riflar bor bo`lib zaiflikdan kuchlilikka qarama-qarshilikni rivojlantirib hukmronlik qilish, qurquvda ushlab turish orqali boshqarsh, milliy, iqtisodiy, biznes, mafkuraviy, mavqe, sinfiy va boshqa ko`plab sabablarni o`zida birlashtiruvchi insonni mavh etishga qaratilgan ijtimoiy, siyosiy, aqliy, individual va global halokatli harakatlarni umumlashtiruvchi tushuncha sifatida dalillar asosda tahlil qilinadi*

***Kalit so`z:** internet, kiberterrorchilik, kiber zo`zavonlik, kiber makon, terrorizm ekstirimizm, tahdid, kiberjinoyat, ijtimoiy tarmoqlar, Facebook, Instagram, Twiterr, kibermaydon, ekstirimistik, mafkura, ISHID.*

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi. Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» (o`zbek tilida tarjimasini «Asabli manzaralar tasvirlovchisi», rus tilida «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo`llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o`ziga xos ko`rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub`ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo`ladi. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog`i orqali bir-biri bilan bog`langan va bir vaqtning o`zida turli geografik

nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi. Kiberterrorchilik – bu tahdid yoki qo'rqitish orqali, internetdan foydalangan holda, siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko'rinishi bo'lishi mumkin. Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba'zi mualliflar ma'lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog'liq juda tor ta'rifni tanlaydilar. Boshqa mualliflar esa kiberjinoyatni o'z ichiga olgan kengroq ta'rifni afzal ko'rishadi. Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo'ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo'lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta'sir qiladi. Ba'zi ta'riflarga ko'ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo'lishi mumkin. Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yo'lida vayron qilish zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida ham e'tirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzg'unchilik bo'yicha juda malakali bo'lganlar hukumat tizimlariga katta zarar yetkazishi keyingi hujumlardan qo'rqib, mamlakatni tark etishi mumkin. Bunday terrorchilarning maqsadlari siyosiy yoki mafkuraviy bo'lishi, bu esa terrorning bir ko'rinishi deb hisoblanishi mumkin. Hukumat va ommaviy axborot vositalarida kiberterrorizm yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyon haqida xavotirlar talaygina. Bu esa Federal Qidiruv Byurosi (FQB) va Markaziy Razvedka Boshqarmasi (CIA) kabi davlat idoralarini kiberhujumlar va kiberterrorizmga chek qo'yishga unday boshladi. Kiberterrorizmning bir necha asosiy kichik holatlari bo'lgan. Al-Qoida internetdan tarafdorlari bilan muloqot qilish hatto yangi a'zolari yollash uchun foydalangan. Estoniya, Boltiqbo'yi mamlakati, texnologiya jihatidan rivojlanib borishmoqda, 2007-yil aprel oyida Estoniya poytaxti Tallinda joylashgan Ikkinchi Jahon urushi davridagi sovet

haykali ko‘chirilishi bilan bog‘liq tortishuvlardan so‘ng kiberterror uchun kurash maydoniga aylanib qoladi. Umumiy ko‘rinishi: Kiberterrorizm ko‘lamining asosiy ta‘rifi bo‘yicha munozaralar mavjud. Ushbu ta‘riflar tor bo‘lishi mumkin, masalan, Internetdagi boshqa tizimlarga hujum qilish uchun Internetdan foydalanish, bu odamlar yoki mulkka nisbatan zo‘ravonlikka olib keladi. Ular, shuningdek, axborot texnologiyalari infratuzilmalariga odatiy hujumlar uchun terrorchilar tomonidan Internetdan foydalanishning har qanday shaklini o‘z ichiga olgan keng bo‘lishi mumkin. Ishda motivatsiya, maqsadlar, usullar va kompyuterdan foydalanishning markaziyliigi bo‘yicha malakaning o‘zgarishi mavjud. AQSh davlat idoralari ham turli xil ta‘riflardan foydalanadilar va ularning hech biri hozirgacha o‘z ta‘sir doirasidan tashqarida majburiy bo‘lgan standartni joriy etishga urinmagan. Kontekstga qarab, kiberterrorizm kiberjinoyat, kiberurush yoki oddiy terrorizm bilan sezilarli darajada mos kelishi mumkin. Kasperskiy laboratoriyasi asoschisi Yevgeniy Kasperskiy hozirda “kiberterrorizm kiberurush” dan ko‘ra aniqroq atama ekanligini his qilmoqda. Uning ta‘kidlashicha, bugungi hujumlar bilan siz buni kim qilgani yoki ular yana qachon zarba berishini bilmaysiz. Bu kiber-urush emas, balki kiberterrorizmdir”. U, shuningdek, o‘z kompaniyasi kashf etgan Flame Virus va NetTraveler Virus kabi keng ko‘lamli kiber qurollarni biologik qurollarga tenglashtirib, bir-biriga bog‘langan dunyoda ular bir xil darajada halokatli bo‘lish potentsialiga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Agar kiberterrorizmga an‘anaviy terrorizmga o‘xshash munosabatda bo‘lsa, u faqat mulk yoki hayotga tahdid soladigan hujumlarni o‘z ichiga oladi va jismoniy, haqiqiy zarar yoki jiddiy buzilishlarni keltirib chiqarish uchun maqsadli kompyuterlar va ma‘lumotlardan, xususan, Internet orqali foydalanish infratuzilmasi sifatida ta‘riflanishi mumkin. Terrorizmni o‘rganish bo‘yicha ixtisoslashgan ko‘plab akademiklar va tadqiqotchilar kiberterrorizm mavjud emasligini va haqiqatan ham xakerlik yoki axborot urushi masalasi ekanligini ta‘kidlamoqda. Hozirgi hujum va himoya texnologiyalarini hisobga olgan holda, elektron vositalardan foydalangan holda aholida qo‘rquv, jiddiy jismoniy zarar yoki o‘lim paydo bo‘lishi ehtimoli yo‘qligi sababli uni terrorizm

deb belgilashga rozi emaslar. Umuman kiberjinoyatda bo'lgani kabi, kiberterrorizm aktlarini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar chegarasi erkin foydalanish mumkin bo'lgan xakerlik to'plamlari va onlayn kurslar tufayli doimiy ravishda pasayib bormoqda. Bundan tashqari, jismoniy va virtual olamlar jadal sur'atlar bilan birlashib, yana ko'plab imkoniyatlar maqsadlariga erishmoqda, buni Stuxnet, 2018-yildagi Saudiya neft-kimyosi sabotaj urinishi va boshqalar kabi e'tiborga molik kiberhujumlar tasdiqlaydi. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi "superkorporatsiya" texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida quyidagicha ta'kidlaangan: "Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, boshko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur". Bu xususida Xalqaro press-klubda Mintaqaviy aksilterror tuzilma (MAAT) Ijroiya qo'mitasi direktori Evgeniy Sisoevning so'zlariga ko'ra, MAAT O'zbekiston bilan o'zaro ishonch va yordamga asoslangan aloqalarni o'rnatgan. Xalqaro Press-klubda abo'lib o'tgan ko'p tomonlama hamkorlik masalalariga bag'ishlangan navbatdagi yig'ilish zamonaviy tahdidlar sharoitida asosiy masalalardan biri axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik masalasi ekanini ta'kidladi.

«Kibermaydonlar xalqaro terrorchi tashkilotlar a’zolarining o’z maqsadlariga erishish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yo’nalishda ko’p ishlarni amalga oshiryapmiz, bu borada hamkorlik chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Biz terrorchilikka qarshilik qilish maqsadida aksilterror o’quv mashqlarini o’tkazyapmiz. Xitoy tomon bu masalalarga katta e’tibor qaratmoqda va ko’plab qiziq takliflar kiritmoqda. Aprel oyida Shanxayda ajoyib seminar bo’lib o’tdi. Unda kiberterrorizm masalasiga bag’ishlangan uchrashuvlar o’tkazildi. Bu mazmunda janob Mirziyoevning takliflari juda o’rinli», — qo’shimcha qiladi E.Sisoev. “Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum” tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to’ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to’g’risida Aydarbek Tulepov o’zining “ISHID fitnasi” kitobida quyidagi ma’lumotlarni beradi. ISHID o’zining internet orqali go’yo Islom yo’lida “qurbon” bo’layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari “al-Hayot” media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta’sir va tazyiqlarning bosh ob’ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo’lmagan, tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda. Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo’lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo’lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma’naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko’rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo’l urgan bo’lasan, kerak bo’lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan» - degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e’tibor berilayotganini ko’rsatadi. «Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday

bo‘lishini aytib beraman», - deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko‘zlab ish yuritmoqda deyish mumkin. Ayniqsa, g‘oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yoshlar ma‘naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Shuning bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba‘zan mudhish holatlarning yuz berishiga olib kelmoqda. Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e‘tibor bilan qaralgan. Mamlakatimizda sog‘lom va ma‘naviy boy intellektual rivojlangan, axloqan yetuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish maqsadida 2000 yilni «Sog‘lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2008 yilni «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2014 yilni «Sog‘lom bola yili» va 2016 yilni «Sog‘lom ona va bola yili» deb e‘lon qilingani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu borada yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi». Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog‘lom etib tarbiyalasa, ma‘naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma‘naviy tarbiya farzandning o‘zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma‘rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko‘rsatilgan - unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma‘naviy olami uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma‘rifatli bo‘lmog‘i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma‘naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go‘zal xulq ila

tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e'tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi. Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Ota-bobolarimiz dini bo'lmish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehroqibatlilik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash nafaqat bir davlat yoki mintaqa, balki jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham diniy ta'lim berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish begunoh kishilarning qoni to'kilishi, obod joylar vayron bo'lishi, aholi o'rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda. Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaning rivojlanishi diniy mutaassiblik xavfining oldini olishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Ammo g'arazli kuchlar ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida yangi-yangi uslublarni, hiyla-nayranglarni o'ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishi va rivoj topishiga yo'l qo'ymaslik esa doimiy xushyorlikni talab etadi. Ming afsuski, diniy savodi past bo'lgan ayrim kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo'ygan turli oqim vakillarining quruq va'dalariga aldanib qolmoqdalar, hatto, o'zlarini qurbon qilishgacha etib bormoqdalar. Johillik ham mutaassib oqimlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardan biriga aylandi. Mamlakatimiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan materiallardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'ldan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi. O'zini portlatish orqali

begunoh kishilarning halok bo'lishiga, qanchadan-qancha bolalarning etimga aylanishiga sabab bo'ladigan jafokorlik ham jaholatning o'ziga xos ko'rinishidir. Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Bunday kuchlar yoshlarimiz ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo'llardan foydalanishga urinmoqda. Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mutlaqo yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik - mahalla faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak. Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini ommaga ob'ektiv ko'rsatib - ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buzg'unchi kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlanmalar yaratish yoki ularni aholi orasida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlikosoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-

avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o‘zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalarning beshinchisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Muqaddas islom dinimizni insonparvarlik g‘oyalari targ‘ib etish “Jaholatga qarshi-ma‘rifat” tamoyili asosida o‘tib kelayotgan yoshlarimizni sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat beramiz. Sizlarga ma‘lumki O‘zbekiston ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat, lekin bizning eng katta boyligimiz turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikdir, desam o‘ylaymanki barchangiz bu fikrga qo‘shilasiz”, -deb ta‘kidladi. Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “V Kontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. SHuningdek, Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi “rahnamolar” haqida ham yoziladi. Bular, Muhammad ibn Abdulvahhob, Hasan al-Banno, Sayyid Qutb, Muhammad Ilyos Kandehlaviy, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdul Qadim Zallumlarning yoshlar ongiga kuchli ta‘sir o‘tkazadigan: “Xudo-idealimiz, payg‘ambar-dohiyimiz, Qur‘on-konstitutsiyamiz, jihodvositamiz, din va Xudo yo‘lida qurbon bo‘lish-ezgu orzuimiz”, - kabi jarangdor shiorlari aslida soxta bo‘lib, g‘arazli maqsadga erishish yo‘lidagi niqobdan boshqa narsa emas. Bu xususda 2017 yil 28 iyun kun.uz saytida bergan ma‘lumotga ko‘ra: Ukraina hukumatining barcha kompyuterlari xakerlik hujumiga uchradi. Bu haqda mamlakat bosh vaziri o‘rinbosari Pavel Rozenko Facebook’dagi sahifasida xabar berdi. Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko‘radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta‘minotdan foydalanadi, tarmoqli ta‘minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. “Al-Qoida”ning birinchi rasmiy sayti 2001 yil 11 sentyabr voqealarigacha ham mavjud bo‘lgan. “Al-Qoida” sayti o‘sha vaqtlardagi veb-

resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg'un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e'lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan.

Xulosa Terrorizmning inson jamiyatiga nisbatan sinfiy, tabaqaviy, moliyaviy, iqtisodiy, ma'naviy, diniy, falsafiy, hududiy, milliy va boshqa jihatlari asosli tadqiq etilmay kelayapdi va shu sababdan unga berilgan ta'riflarning barchasi taxminiyligicha qolib kelmoqda. Terrorizmda psixologiya, shaxsning jamiyatdagi mavqei, intellektual salohiyat, umumlashtiruvchi maqsadlari inson joniga qasd qilinishi nuqta nazaridan bir tomonlama baholab kelinadi, uning ijtimoiy hodisa sifatidagi tavsifi haligacha shakllanmagan. Zero, inson ijtimoiy hodisa bo'lgani kabi ko'pchilik birlashib amalga oshirgan faoliyat ham ijtimoiy asoslardan kelib chiqishiga ahamiyat qaratish zaruriyati mavjud. Jamiyat avvaldan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zaro kelishmovchiliklarga ega bo'lgani uchun terrorizm o'ziga mos muhitni topdi va ijtimoiy, iqtisodiy tafovutlar bor joylarda o'z harakatlarini qo'llay boshladi. Mahalliy va mintaqaviy imkoniyatlar yoki imkonsizliklarni ham terrorizmni keltirib chiqaradigan omillar qatoriga qo'shish mumkin. Rivojlangan, sanoatlashgan va turmush tarzi yuqori bo'lgan mintaqalar yoki mamlakatlar terroristik tashkilotlar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi va bu imkoniyatga ega bo'lmagan mahalliy aholini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan sabablar qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO«Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.

5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni // Inson falsafasi. - T.: Noshir, 2016. B.314-499. Qo'shimcha adabiyotlar
6. K. S. Guttenplan. J. Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
7. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI // Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
8. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI // Interpretation and researches. – 2024.
9. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION // BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
10. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System // Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
11. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes // Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
12. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization // Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
13. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' // TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
14. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' // TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
15. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION

BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

16. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

17. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.